

**GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAQOLLARNING DARS
MASHG‘ULOTLARIDA QO‘LLANISHINING AHAMIYATI**

Hasanova Xayrixon Fazlidinxonovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti “Pedagogika, psixologiya va boshlang‘ich ta‘lim”

kafedrası o‘qituvchisi.

Telefon raqami: 93 519 95 51, elektron pochta: oftoboyimnurlari@mail.ru

Abduxakimova Xusniyabonu Xasan qizi

“Boshlang‘ich ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Telefon raqami: 94 595 08 21, elektron pochta: xusniyabonuabduxakimova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18891464>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi majoziy obrazlar, hayvonlar va qushlar tili orqali berilgan ijtimoiy tanqid, shuningdek, asarning leksik qatlamini tashkil etuvchi maqollar tahliliga keng o‘rin berilgan. Maqolada muallifning badiiy mahorati, “hikoya ichida hikoya” uslubi va asarning bugungi kunda tutgan o‘rni ilmiy va mustaqil fikrlar asosida yoritiladi.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются образные средства, социальная критика, выраженная языком животных и птиц, в произведении «Зарбулмасаль» Мухаммада Шарифа Гулхани, выдающегося деятеля узбекской литературы XIX века, а также пословицы, составляющие лексический пласт произведения. В статье освещается художественное мастерство автора, стиль «история в истории» и место произведения в современном мире с точки зрения научных и независимых оценок.

Abstract. This article extensively analyzes the figurative images, social criticism expressed through the language of animals and birds in the work "Zarbulmasal" by Muhammad Sharif Gulkhani, a major figure of 19th-century Uzbek literature, as well as the proverbs that make up the lexical layer of the work. The article highlights the author's artistic skill, the "story within a story" style, and the place of the work today based on scientific and independent opinions.

Kalit so‘zlar: Gulxaniy, zarbulmasal, masal, maqol, satira, majoz, Boyo‘g‘li, Yapaloqqush, badiiy mahorat, saj‘, axloq, tarbiya, nutq madaniyati.

XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek madaniyati tarixida alohida mavqega ega. Bu davrda saroy adabiyoti bilan bir qatorda xalq hayotini, uning dard va iztiroblarini aks ettiruvchi realistik yo‘nalish ham shakllana boshladi. Muhammad Sharif Gulxaniy ana shu muhitning eng yorqin, isyonkor va xaqchil vakili edi.

Gulxaniy oddiy sipohiy oilasida tug‘ilib, hayotning barcha achchiq-chuchugini totgani bois, uning ijodida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning “Zarbulmasal” asari shunchaki badiiy to‘qima emas, balki davrning ijtimoiy-siyosiy inqirozlariga berilgan munosabatdir. Muallif o‘z davridagi insonlar tabiatidagi illatlarni, amaldorlarning ochko‘zligini va xalqning og‘ir ahvolini qushlar sarguzashtiga ko‘chiradi.

“Zarbulmasal” asari janr jihatidan o‘zbek adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Uni shartli ravishda “masal-roman” yoki “didaktik doston” deb ham atash mumkin. Asarning asosi nasriy bayondan iborat bo‘lsa-da, u she’riy parchalar va xalq maqollari bilan bezatilgan. Asarning markaziy syujeti - Boyo‘g‘li va Yapaloqqushning qarindoshlik rishtalarini bog‘lash harakati atrofida aylanadi. Gulxaniy sharq adabiyotidagi “Kalila va Dimna” (Bidpoy), “Mantiq ut-tayr” (Attor) an‘analarini davom ettirgan holda, o‘zbekona milliy ruhni kiritdi. Asar “ramka usuli”da yozilgan bo‘lib, asosiy voqea ichida o‘nlab mustaqil masallar (masalan, “Tushovli eshak”, “Toshbaqa va Chayon”, “Maymun va Najjor”) keltiriladi. Bu uslub kitobxonni zeriktirmaslikka va har bir kichik hikoyadan alohida xulosa chiqarishga xizmat qildi.

Obrazlar tizimi majoz va haqiqat to‘qnashuvidan iborat. Gulxaniy asarida personajlar qushlar va hayvonlar bo‘lsa-da, ularning ortida aniq ijtimoiy tabaqalar turadi:

Boyo‘g‘li - bu obraz orqali muallif o‘zining amali va nasabidan kibrlangan, lekin ma’naviy dunyosi vayron bo‘lgan amaldorlarni tasvirlaydi. Boyo‘g‘lining o‘z kelini uchun “mahr” sifatida vayron bo‘lgan qishloqlarni so‘rashi - bu o‘sha davrdagi soliqlar va urushlar natijasida xonavayron bo‘lgan xalqning fojiasidir.

Yapaloqqush - u amaldorlarga taqlid qiluvchi, o‘z imkoniyatini bilmay turib katta da’volar qiladigan nodon kimsalar ramzi.

Humo qushi - odillik va oliyjanoblik timsoli. Gulxaniy bu obraz orqali jamiyat qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi o‘zining ijtimoiy idealini ilgari suradi.

Maqollar tahlili millatning hikmatlar qomusidir.

Asarning eng kuchli tomoni undagi maqollarning mahorat bilan qo‘llanishidir. Muallif 400 ga yaqin maqolni asar matniga shunday singdirib yuborganki, ular asarning qon-tomiriga aylangan.

Asarda qo‘llanilgan maqollar shunchaki bezak emas, balki qahramonlar xarakterini ochuvchi vositadir. Masalan, quduq tubidagi baqa haqidagi maqol orqali;

1. “Quduq tubida suzgan baqa daryo lazzatini qaydan bilsin?”

Gulxaniy bu bilan maqol dunyoqarashi tor, faqat o‘zining mayda manfaatlari bilan yashovchi, ilm va ma’rifatdan yiroq kishilarga nisbatan ishlatilgan. Gulxaniy bu orqali nodonlikni qattiq tanqid qiladi.

2. “Tuya so‘yilgan joyda pashshaning nima ishi bor?”

Gulxaniy bu maqolda esa davlat ahamiyatiga molik ishlar yoki jiddiy muammolar hal etilayotgan joyda, layoqatsiz va kuchi yetmaydigan odamlarning aralashishi faqat zarar keltirishini ta’kidlab o‘tadi.

3. “Kishi yerini kishi olmas, olsa ham kishi bo‘lmas”

Gulxaniyning bu maqolida insonning mulkiy huquqlari va adolat tamoyili aks etgan.

Birovning haqini yegan odam baraka topmasligi va insoniy qiyofasini yo‘qotishi ta’kidlanadi. Bu dunyoda birovning haqi hech qachon boshqasida qolmaydi. Halolik va poklik insonning eng go‘zal fazilati hisoblanadi.

Asar ichidagi kichik masallar mustaqil falsafiy ma’noga va yukka ega. Masalan, “Toshbaqa va Chayon” masalini olaylik. Chayon toshbaqaning yaxshiligiga qaramay, uning orqasiga nish uradi. Gulxaniy bu yerda inson tabiatidagi odatga aylangan yomonlikni ko‘rsatib beradi.

Ba'zi odamlar borki, ularga qilingan yaxshilik evaziga baribir yomonlik qaytarishadi, chunki bu ularning tabiatiga aylanib bo'lgan. Muallif kitobxonni odam tanlashda hushyor bo'lishga chaqiradi. Hozirgi kunda hushyorlik davr talabi hisobaladi.

Gulxaniyning "Tuya va Bo'ta" hikoyasida esa yoshlarning tajribasizligi va kattalar nasihatiga quloq solmasligi oqibati fojiali tugashi ko'rsatiladi. Bu tarbiyaviy yo'nalish asarning qiymatini yanada oshirib beradi. Kattalarning har qanday bergan nasihatlarini to'g'ri qabul qilishimiz kerak. Chunki xalqimizda "Qarsi bor uyning parisi bor" kabi hikmatli gaplar bejizga aytilmagan.

Asarda eng yana bir hikoya e'tiborni tortadi. Bu "Fil va pashsha" hikoyasidir. Sababi shundaki, bu hikoyada birlikning yaqqol timsoli bo'lib ko'rinadi. Fil pashshalarni mensimagan edi. Lekin pashshalar birlashib filni mag'lubiyatga uchratadi. Birgalikda qilingan har qanday ish albatta muvaffaqiyat kaliti bo'la oladi.

"Zarbulmasal" asarining tili xalq jonli tiliga nihoyatda yaqin. Gulxaniy "Saj" (prozadagi qiyofa) san'atini shunday mahorat bilan ishlatadiki, matnni o'qiganda o'ziga xos ritm va musiqa seziladi. Uning satirasi "yumshoq kulgi" emas, balki "achchiq kinoya"dir.

Adib asarda qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo'yish orqali haqiqatni yanada yorqinroq ochib beradi. Yaxshilik va yomonlik, kibr va kamtarlik, boylik va kambag'allik zidlanadi. Humo (baxt qushi) va Boyo'g'li (vayrona qushi) qarama-qarshiligi orqali hayot va mamot, obodlik va vayronalik falsafasini tushuntiradi. Gulxaniyning kulgusi shunchaki shodon kulgi emas, bu –"yig'lab turib kulish"dir. U amaldorlarning xalqqa nisbatan munosabatini Yapoloqqushning "vaxshatxo'rliqi" (vayronaga o'chligi) orqali shunday mazax qiladiki, o'quvchi ham nafratini, ham achchiq kulgini his qiladi. Uning uslubida kinoya piching bilan, satira esa chuqur falsafa bilan uyg'unlashgan.

Muallif personajlar tilidan turli shevalarga xos so'zlarni, iboralarni va xalq og'zaki ijodi namunalarini dadil qilib olib kirgan. Bu esa asarning o'sha davrdagi boshqa asarlar orasida eng o'qishli va tushunarli bo'lishini ta'minlagan.

"Toshbaqa va Chayon" masali orqali bolalar do'stlik, vafo va xiyonat nima ekanligini mavhum tushunchalar orqali emas, baliq hayotiy obrazlar orqali anglaydilar. Bu ularda yomon xulq-atvordan saqlanish ko'nikmasini shakllantiradi. Tarbiyada axloqning o'rnini ko'rsatib beradi.

Asardagi maqollar bolalarning nutqini mantiqiy, lo'nda va serma'no qiladi. Maqollarni yodlash orqali bolaning so'z boyligi oshadi, xalq donishmandligiga bo'lgan hurmati shakllanadi.

Nutq o'stirish va boyitishda asardagi maqollardan foydalanish dars mashg'ulotining tarbiyaviy va ta'limiy maqsadini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Gulxaniyning har bir masala oxirida chiqarilgan xulosalar o'quvchini "Nega shunday bo'ldi?," "Qaysi qahramon haq?" degan savollar ustida o'ylashga majbur qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning ilk poydevoridir.

Qushlar orqali insoniy xislatlarning tushuntirilishi bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otish bilan birga, insonlar orasidagi munosabatlarni anglashga ham yordam beradi. Bu esa tabiat va jamiyat bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Asarda keltirilgan maqollar:

"Yiqilgan kurashga to'ymas.

Boshga tushganni ko'z ko'rar.

Xayr ishga jarchi bo'lsang, malul bo'lma.

Og'iz bo'lma, oyoq bo'l.

Uyat – o'limdan qattiq.

Ermon yog'ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani o'lgani.

Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas.

Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur.

Oyoq yugurigi oshga, og'iz yugurigi boshga.

Maqtangan qiz to'yda uyalar.

Yaxshi nafas – yarim mol.

Sichqon sig'mas inig'a, g'alvir bog'lar dumig'a

Yaxshilik qil suvg'a sol, suv bilmasa, bolliq bilur; bolliq bilmasa, Xoliq bilur.

Yomong'a yondoshsangiz balosi yuqar, Qozong'a yondashsangiz qarosi yuqar.

Yolg'iz otni changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas. ...".

Asarda keltirilgan maqollarni dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning tasavvuri, so'z boyligini oshirish, xotirasini mustahkamlash, fikrlash doirasini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish uchun foydalanish pedagogning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Maqollar asosida tasvir yaratish yoki tushirib qoldirilgan so'zlarni tiklash, maqolning ochiq qolgan qismini davom ettirish kabi uslublardan foydalanish mumkin. Bir maqol zahirida yotgan ma'no, ifodalangan g'oya haqida hamfikir bo'lishga undash orqali chuqur tahlil qilish orqali mulohaza yutirishni o'rgatishimiz mumkin.

Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'zbek milliy pedagogikasi va adabiyotining bitmas-tuganmas xazinasidir. Adibning yuksak badiiy mahorati va til boyligi asarni asrlar osha yashab kelishiga sabab bo'lmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu asar maktab darsliklarida shunchaki o'qish materiali sifatida emas, balki chuqur tahlil qilinishi lozim.

"Zarbulmasal"ni o'qigan bola nafaqat adabiyotni sevadi, balki xalqning milliy qadriyatlarini, tilning nafosatini his qiladi. Gulxaniy aytganidek, "So'z aytsang, so'zingga boq" tamoyili har bir yosh avlod vakili uchun hayotiy shiorga aylanishi darkor. Biz - bugungi kun tadqiqotchilari va yoshlari uchun bu asar o'zligimizni anglatuvchi ma'naviy ko'zgudir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gulxaniy. "Zarbulmasal". Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012.
2. Mallaev N. "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent, 1976.
3. Akramov B. "Gulxaniy hayoti va ijodi". Toshkent, 1980.
4. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Mutolaa loyihasi.